XALQ DEPUTATLARI QORAKO’L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust VII-14-108-2-37-K/25 Qorako’l tumani

Qoraköl tuman mahalliy budjetining 2025-yil ijrosidan kelib chiqib, budjet tashkilotlarining söʻrovlarini inobatga olib hamda kechiktirib boʻlmaydigan xarajatlarni oʻz vaqtida amalga oshirish va budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida budjet tashkilotlarining xarajatlari rejasiga oʻzgartirishlarni kiritish toʻgʻrisida

Qoraköl tuman mahalliy budjetining xarajatlari rejasiga tegishli oʻzgartirishlar hamda yuqori budjetdan maqsadli tadbirlar uchun qoʻshimcha ajratilgan mablagʻlar toʻliq hisobga olinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 143 va 147-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini taʼminlash, budjetda koʻzda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va oʻz vaqtida amalga oshirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2025-yil xarajatlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritish zarurati tugʻilmoqda.

Shu sababli kelgusida tuman mahalliy budjetining parametrlariga ichki kiritiladigan oʻzgarishlar ID 106562-son bilan jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yuqorida bayon etilganlarga, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Qoraköl tuman mahalliy budjetining 2025-yil budjet parametrlariga ichki kiritiladigan oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimining maʻlumoti inobatga olinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-148-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini taʼminlash, budjetda koʻzda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va oʻz vaqtida amalga oshirish maqsadida Qoraköl tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining 2025-yil boʻyicha xarajatlari rejasiga kiritiladigan tegishli oʻzgartirishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tuman adliya bo‘limiga kiritilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiya raisi R.Xoʻjamurodov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



TOHIROV XURSHID
YAHYOYEVICH

Xalq deputatlari Qorako’l tumani
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-108-2-37-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qorakoʻl tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining 2025-yil boʻyicha xarajatlari rejasiga kiritiladigan tegishli oʻzgartirishlar

mln.soʻmda

№	Budjet tashkiloti nomi	Kiritiladigan oʻzgarishlar	Izoh
X	**Jami**	**0.0**	X
1	**Tuman hokimligi**	**154.8**	**Ichki budjetga kiritilayotgan oʻzgarishlar budjet tashkilotining soʻroviga asosan, kechiktirib boʻlmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek tashkilotni saqlash xarajatlarini iqtisod qilish uchun quyosh panellari oʻrnatish va boshqa xarajatlarni qoplash uchun past samarali xarajatlarni maqbullashtirish orqali amalga oshirilmoqda**
2	**16-son musiqa va san’at maktabi**	**24.27**	
3	**Madaniyat boʻlimi (markazlar)**	**190.0**	
4	**Yoshlar ishlari agentligi**	**-99.8**	
5	**Hayvonlarni davolash boʻlimi**	**-29.8**	
6	**Oziq-ovqat xavfsizligi va hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashish laboratoriyasi**	**29.8**	
7	**Iqtisodiyot va moliya boʻlimi**	**-185.0**	
8	**Tuman obodonlashtirish boshqarmasi**	**70.0**	
9	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi**	**-154.27**	